

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№6

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025
IYUN



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr,
428 sahifa, iyun, 2025-yil.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Ways to Strengthen the Economy of Karakalpakstan	12
Isakov Janabay Yakypbayevich	
Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish xavf-xatarlarini iqtisodiy baholash.....	18
Raxmatova M.G., Saidjonova Z.B	
Strategy For Attracting Investments By Expanding the Participation of Joint-Stock Companies in the Securities Market	23
Aytmuratova Ulbike Jalgasovna, Kutlymurat Zhalgasovich Aytmuratov, Raushan Nurlybay qizi Umirzakova	
O'zbekistonda eksportni sug'urtalash mexanizmlari: mavjud holat va takomillashtirish yo'llari	29
D.E.Qarshiev	
Ta'lim, ekologiya va raqamlashtirish sohalarida bolalar va o'smirlar turizmini integratsiyalash: xalqaro tajribalar va O'zbekiston	35
Islomova Dilrabo Salomovna	
Oliy ta'lim muassasalarida xodimlarning mehnat samaradorligini oshirishda rahbarlarning roli	40
Reyimberdiyev Baburbek Adilbek o'g'li, Yusupov Sherzodbek Baxtiyor o'gli, Xaitbayev Jasurbek Otaxanovich, Madraimov Xabibulla Madaminovich	
Обзор по теме Современные системы управлением возбуждение синхронных машин и перспективы их развития	47
Алиев Абдор Мураткулович	
The Mechanism for Applying Tax Benefits and Preferences in Tax Administration	52
Dilorom Mutalova	
Innovatsiyalarning ahamiyati va ularning iqtisodiy samaradorligining o'zbekiston qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashdagi roli	57
Raximov Baxromjon Ibroximovich, Solohiddinov Nuriddin Sirojiddin o'g'li	
Bino va inshootlarni zilzilabardoshligiga oid nazariyalar.....	62
Jalilov Ahmadbek Ikromjon o'g'li	
Soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini konseptual asoslari va shartlari asoslari xususida	66
Abdusherzov Abdullo Baxtiyorovich	
The Analysis of the Psychophysiological Condition of Children With Mental Disorders and the Creation of Comfort Through Designed Clothing	73
Asatilaeva Lola Muratjon qizi, Muminova Umida Tokhtasinovna	
Analysis Types of Waterproof Fabrics and Their Physical and Mechanical Properties	80
Pulatova Laziza Bakhodirovna, Kasimova Aziza Bakhodirovna	
Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatidan foydalanish darajasi va uni oshirish omillari	85
Umarkulov Kodirjon Maxamadinovich, To'xtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li	
Suv resurslarini boshqarishda zamonaviy texnologiyalar:qishloq xo'jaligi uchun iims modelini ishlab chiqish.....	89
Fazilat Egamberganova Shuhratovna	
Raqamli texnologiyalar yordamida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish	93
Ernaqulov Sunnatillo Nurali o'g'li	
Qurilish sanoati korxonalarini boshqarishning iqtisodiy mexanizmlari	98
Yembergenova Aynur Aydosbaevna	
Mahalliy budjetlar ijrosi to'g'risidagi hisobotlar va ularning axborot imkoniyatlarini oshirish masalalari	104
Abdulaziz Norquchqorov Ziyadullayevich	
Sirdaryo viloyatida investitsion faollikni oshirishda davlat va xususiy sektor hamkorligi	110
Mamatqulova Muxlisa Komiljon qizi	



Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatidan foydalanish darajasi va uni oshirish omillari	115
Umarkulov, Kodirjon Maxamadaminovich, To'xtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li	
Soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlashning gnoseologik asoslari xususida	118
Abdusherozov Abdullo Baxtiyorovich	
Nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashkil etishning tashkiliy-huquqiy jihatlari	125
Yaqubova Nodira Olim qizi	
O'zbekistonda to'qimachilik eko-mahsulotlari bozorining rivojlanish imkoniyatlari	130
Nosirova Charos	
Uy-joy fondini boshqarish samaradorligini oshirishda zamonaviy sifat menejmenti tizimining o'rni	135
Asadullina Nailya Ramilevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
Axoli daromadlarining turmush farovonligiga ta'siri	142
Berdibekov A.	
Raqamli iqtisodiyot sharoitda ta'lim xizmati sifatini oshirishni ekonometrik modellashtirish usullari	148
Axmedova Barno Abdiyevna	
Jahon mamlakatlarida chakana savdoni boshqarishning o'ziga xosligi va unda strategik menejment tizimi	151
Yaqubov Azizbek G'anibekovich	
Kichik tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari	156
Amonov Mehridin Oromiddinovich	
Geologiya korxonalarining investitsion samaradorligini oshirish yo'llari	163
O'tamurodova Surayyo SHokirjon qizi	
Temir yo'l transportini rivojlantirishdagi xorij tajribasi	169
Nasrullayev Nurbek Baxtiyarovich	
Hududlar iqtisodiyoti agrar sektori investitsion faolligining ko'rsatkichlar tizimi va ularning xususiyatlari	174
S.J. Yangiboev	
Hududlarning soliq salohiyatini oshirishdagi mavjud muammolar va ularning yechimlari	181
Sharipov Narzullo G'ulomovich	
Uzoq muddatli aktivlar auditining tashkiliy va uslubiy jihatlarini takomillashtirish	188
Bakayev Xurshid Maxmudovich	
Применение искусственного интеллекта в оценке кредитных рисков.....	195
Маликов Шохрух Шокирович, Неъматова Фарангиз Санжар кизи, Омонов Санжар Ғанишер ўғли, Гулмуродова Динора Акрам кизи, Камалов Шухрат Камалович	
Tashqi bozorlarda tovarlarning raqobatbardoshligini oshirishda zamonaviy marketingdan foydalanish ...	209
Meliqulov Abduhalil Norinovich	
Tijorat banklari investitsiya faoliyatida yuzaga keluvchi risklar	215
Jo'rayev O'ktam Panji o'g'li	
Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda xalqaro savdo shartnomalarining roli.....	219
Xodjayev Jamshid Abduxakimovich	
Servislashgan jamiyatda avtoservis xizmatlarining o'rni va ahamiyatini yoritishga qaratilgan ilmiy yondashuvlar	223
Shaymardanova Dildora Xaydarjon qizi	
Davlat budjetining ijtimoiy sohani rivojlantirishdagi o'rni	230
Qo'ziyev Shodiyor Qilichboy o'g'li	
Madaniy festivallar-turizmni rivojlantirish vositasi sifatida	234
Xushnazarova Maxzuna Gulamdjanovna	
Xizmatlar sohasida innovatsion strategiyani shakllantirishning o'ziga xos jihatlari	239
Jamshid Abduxaliqovich Xolboyev	



Innovatsion tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotdagi o'rnini	244
Fayziyev Shavkat Shaxobidinovich	
Managing Tourism in Fragile Ecosystems: A Case Study Approach	251
Dilmurod Nasimov, Shahrizoda Sirojiddinova	
Development of the Digital Financial Assets Market to Enhance Investment Activity	258
Shamshinur Yakubova	
Turizm sohasining investitsion jozibadorligi va uni oshirish yo'llari	263
Ayubov Ilyos Ilxomovich	
Qimmatli qog'ozlar bozorida risklarni boshqarish amaliyotini takomillashtirish	268
Otaxonov Saidaxror Ilhomjon o'g'li	
O'zbekiston hududlarining barqaror rivojlanishi: omillar va ko'rsatkichlar tahlili	274
Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich	
Iqtisodchi va bugalterlarning jamiyatdagi o'rnini va ahamiyati	282
Sohibova A'loxon Zafarjon qizi	
Kasbiy ta'lim tashkilotlarida o'quvchilarni raqamli kompetensiyasini baholashning metodologik asoslari ..	286
Maxkamova Zuxra Tursunpulotovna	
Sug'urta faoliyati hisobining normativ-huquqiy asoslari	292
Kodirkulov Oybek Turdiboyevich	
Raqamli iqtisodiyot: qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini ixtisoslashtirish va joylashtirish	301
Bazarov Nazirjon Sobirovich, Mo'minov Baxodir Orifjonovich	
Sport maktablaridagi yoqari sinf o'quvchilarining chidamkorlikni rivojlantirishning ahamiyati	306
Qon'irbayev Dastan	
Международный опыт сельскохозяйственного налогообложения и возможности его применения в узбекистане	311
Салимов Шерзод Бахтиёрвич	
Cleaning of Salt Water Using Reverse Osmosis	316
Kungiratbay Sharipov, Nurmanov Ma'ruf	
Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy instrumentlar auditi uchun tavakkalchilikka asoslangan baholash mezonlarini takomillashtirish	326
Nuraliyev Behzod Baxtiyor o'g'li	
Turizm investitsion salohiyatiga ta'sir kuchlari va ularga yechim	331
Ayubov Ilyos Ilxomovich	
Korxonalarda nomoddiy aktivlarni hisobga olishda shaffoflikni ta'minlash va xorij tajribalaridan foydalanish istiqbollari	335
Rizakulov Abdurauf Abdimutalibovich	
Strengthening the Tourism Industry Through Education and Training: A Review of Global and Regional Strategies	342
G'aforova Zarina Otabek qizi	
Raqamli iqtisodiyotda telekommunikatsiya infratuzilmasining rivojlanish omillari va iqtisodiy samaradorligi tahlili (o'zbekiston misolida)	348
Xazratov Abror Panjiyevich	
Smart tourism konsepsiyasining o'zbekistonda joriy etilishi: infratuzilma, xizmatlar va raqamli innovatsiyalar tahlili	352
Abriev Zoirjon	
The Development of Tourism Management as a Significant Part of Economy in Uzbekistan	358
To'xtarova Feruzahon Yuldashevna	
Biologik aktivlarni iqtisodiy tahlil qilish turlari: metodologiyasi va amaliy qo'llanilishi	362
Ziyayev Dilshodjon Salimjonovich	



Понятие и сущность денежного потока в системе финансового управления	366
Машарипова Шахло Адамбаевна	
Buxoro viloyat hududining urbanizatsiya konsepsiyasini ishlab chiqish	372
Akramov Doniyor Rustam o'g'li, Usmonov Muradxan Saidmaxmudovich	
Интегрированный механизм оценки финансового состояния предприятия	376
Tajibayeva Kizlargul Ajiniyazovna	
Ecosystem Services Under Ecological Stress: the Case of the Former Aral Sea	383
Umidjan R. Nazarkulov	
O'zbekistonda iqtisodiy ta'lim muammolarini virtual platformalar orqali bartaraf etish yo'llari	388
Jalolova Madina Shopo'lat qizi	
Temir yo'l transporti korxonalarida ishlab chiqarish salohiyatini rivojlantirish ("toshkent mexanika zavodi" aj misolida)	393
Xudoyorova Mehrangiz	
Развитие инклюзивного образования на основе социального маркетинга и цифровизации сферы ..	400
Адилова Зулфия Джавдатовна , Шоев Алим Халмуратович	
Qurilish jarayonlarini boshqarishning xorij tajribalari va ularning milliy investitsion-qurilish sohasiga transformatsiyasi	408
Abduvaliyev Bekzod Muxiddin o'g'li	
Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisbotni tayyorlashni takomillashtirish.....	414
Xayitboyev Muhammadiy Israfilovich , Abduraimova Maftunaxon Axmatovna, Ovlaev Suhrob Temur o'g'lim , Yo'ichiyev Oybek Ulug'bek o'g'li	
Iqtisodiy-ekologik hududlarda pillachilik biznesining mazmuni va mohiyati.....	419
G'oziyeva Aziza Abdusalomovna	



IQTISODIY-EKOLOGIK HUDUDLARDA PILLACHILIK BIZNESINING MAZMUNI VA MOHIYATI

G'oziyeva Aziza Abdusalomovna

Termiz davlat muxandislik va agrotekhnologiyalar
universiteti mustaqil izlanuvchisi

ORCID: 0000-0002-6532-7528

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonda iqtisodiy-ekologik hududlar doirasida "yashil biznes" hamda ko'p tarmoqli tutchilikni rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Tut daraxtining ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy foydalari chuqur yoritilib, uni manzarali daraxtlar bilan birga shahar va qishloq hududlarida yetishtirish taklif etiladi. Tutning bargi, mevasi, novdasi va pilasi choy, dori-darmon, ipakchilik, mebelsozlik hamda kosmetika sanoatida qo'llanilishi bayon etilgan. Maqolada tutchilik asosida tashkil etiladigan kichik va oilaviy biznesning aholi bandligini oshirish, kambag'allikni kamaytirish hamda eksport salohiyatini yuksaltirishdagi o'rni ta'kidlangan. Shuningdek, iqtisodiy-ekologik hududlarda, xususan rekreatsion zonalarda tut ekish orqali qo'shimcha ish o'rinlari yaratish, atrof-muhitni soflashtirish va mahalliy resurslardan unumli foydalanish orqali barqaror rivojlanishga erishish imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: tutchilik, yashil biznes, iqtisodiy-ekologik hududlar, barqaror rivojlanish, agroekoturizm, ko'p tarmoqli xo'jalik, kambag'allikni kamaytirish, pillachilik, oilaviy biznes, eksport salohiyati, mahalliy resurslar, ekologik farovonlik.

Abstract: This article analyzes the opportunities for the development of green business and diversified mulberry cultivation within the framework of economic and ecological zones in Uzbekistan. It comprehensively examines the ecological, economic, and social benefits of the mulberry tree and proposes its cultivation in urban and rural areas alongside ornamental trees. The applications of mulberry leaves, fruits, twigs, and cocoons in tea production, pharmaceuticals, sericulture, furniture manufacturing, and the cosmetics industry are discussed. The article emphasizes the role of small and family businesses based on mulberry cultivation in increasing employment, reducing poverty, and enhancing export potential. It also highlights the prospects for mulberry cultivation in economic and ecological zones, especially in recreational areas, to create additional jobs, improve environmental conditions, and achieve sustainable development through effective use of local resources.

Keywords: mulberry, green business, economic and ecological zones, sustainable development, agro-ecotourism, diversified economy, poverty reduction, sericulture, family business, export potential, local resources, ecological well-being.

Аннотация: В данной статье проанализированы возможности развития «зелёного бизнеса» и многопрофильного шелководства в рамках экономико-экологических зон Узбекистана. Подробно раскрываются экологические, экономические и социальные преимущества дерева тут, а также предлагается его выращивание в городских и сельских районах наряду с декоративными деревьями. Описано применение листьев, плодов, ветвей и коконов тутового дерева в таких отраслях, как производство чая, фармацевтика, шелководство, мебельная и косметическая промышленность. В статье подчёркивается значение малого и семейного бизнеса, основанного на выращивании тутового дерева, для увеличения занятости, сокращения бедности и повышения экспортного потенциала. Кроме того, освещены перспективы создания дополнительных рабочих мест, улучшения экологической обстановки и устойчивого развития за счёт эффективного использования местных ресурсов в рекреационных и других экономико-экологических зонах.

Ключевые слова: Ключевые слова: шелководство, зелёный бизнес, экономико-экологические зоны, устойчивое развитие, агротуризм, диверсифицированное хозяйство, сокращение бедности, производство коконов, семейный бизнес, экспортный потенциал, местные ресурсы, экологическое благополучие.

KIRISH

Iqtisodiy-ekologik hududlar doirasida boshlangan umumxalq harakati toza havo manbalarining ko'payishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu ulkan tashabbusga qanchalik to'xtalmasin, yuzlab sahifalar asosli fikrlar bilan to'ldirilishi mumkin. Bir so'z bilan aytganda, mazkur harakat aholining sog'lig'ini mustahkamlash, hayot sifatini yaxshilash hamda umumiy farovonlikni oshirishga xizmat qiladi. Shahar va qishloq hududlarida go'zal

manzara va ekologik muvozanatni ta'minlashga yordam beradi. Iqtisodiy-ekologik hududlar doirasidagi umum-xalq harakati kichik imkoniyatlarni yuzaga chiqarish uchun ham keng sharoit yaratadi. Ushbu imkoniyatlardan oqilona foydalanish natijasida katta yutuqlarga erishish, jumladan, ishsizlikni bartaraf etish va kambag'allikni kamaytirish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev 2023-yil 20-yanvarda tadbirkorlar bilan ochiq muloqot davomida: "...eksportyor korxonalarni qo'llab-quvvatlash, kichik biznesni eksport faoliyatiga keng jalb etish borasida ham boshlagan islohotlarimiz qat'iy davom ettiriladi", – deb ta'kidlab o'tdi. Bu fikr mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri hisoblangan ipakchilik sohasiga ham bevosita daxldor bo'lib, tarmoqni eksport salohiyatini kengaytirish yo'nalishida isloh etishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ipakchilik sohasi O'zbekiston hududida qadimiy tarixiy ildizlarga ega bo'lib, bugungi kunda engil sanoatning yetakchi tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ushbu sohaning ustun jihatlari — ishlab chiqaruvchilarning an'anaviy hamda zamonaviy agrotexnik usullarni muvaffaqiyatli qo'llab kelayotgani, sohada to'plangan boy amaliy tajriba, iqlim sharoitlariga moslashuvchanligi hamda qishloq joylarda mehnat resurslarining mavjudligi bilan izohlanadi.

Ipakchilik tarmog'ini rivojlantirish mamlakat eksport salohiyatining ortishi, chet el valyutasi tushumlarining ko'payishi, mahalliy va xorijiy investitsiyalar oqimini faollashtirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, ushbu sohada faoliyat yuritayotgan korxonalar ishchi kuchining asosiy qismini xotin-qizlar tashkil etgani sababli, bu tarmoq O'zbekistonda bandlik darajasini oshirishda ham muhim o'rin tutadi.

Ipakchilik mahsulotlarining o'ziga xosligi va asosiy qismining eksportga yo'naltirilganligi sababli, ushbu tarmoq O'zbekiston iqtisodiyoti uchun yuqori salohiyatga ega hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, xalqaro ipak bozori kon'yunkturasidagi o'zgarishlar va ipak mahsulotlariga bo'lgan talabning holati hamda dinamikasini inobatga olgan holda, iqtisodiy-ekologik hududlarda "yashil" kichik biznesni rivojlantirish uchun tegishli shart-sharoitlar yaratish zarur hisoblanadi.

Shu munosabat bilan iqtisodiy-ekologik hududlarda tashkil etilayotgan "yashil makon" doirasidagi ijtimoiy harakatlarni jadallashtirish dolzarb vazifalardan biridir. Ayni vaqtda manzarali daraxtlar o'rtasida 2–4 metr oralig'ida bo'sh joylar mavjud bo'lib, ushbu joylardan oqilona foydalanish maqsadida past bo'yli, parvarishlash va foydalanish uchun qulay bo'lgan tut daraxtlari ko'chatlarini ekish orqali ularni samarali o'stirish imkoniyati mavjud.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda iqtisodiy-ekologik hududlarda pillachilik biznesining shakllanishi, rivojlanish mexanizmlari va ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi tizimli tahlil qilindi. Tadqiqotda deskriptiv (tasviriy) yondashuv, solishtirma tahlil, empirik kuzatuv, ekspert baholash, hamda statistik-analitik metodlardan foydalanildi.

Birinchidan, iqtisodiy-ekologik hududlar tushunchasi, tutchilik va pillachilikning tabiiy, iqtisodiy va ekologik sharoitlari o'rganildi. Mahalliy tajribalar (masalan, Farg'ona vodiysidagi tut yetishtirish klasterlari) asosida hududiy xususiyatlar va resurslardan samarali foydalanish shakllari tahlil qilindi.

Ikkinchidan, pillachilik jarayonidagi asosiy bosqichlar — ipak qurti boqish, pilla yetishtirish, qayta ishlash, mahsulot tayyorlash va realizatsiya qilish — bosqichma-bosqich o'rganildi. Har bir bosqichda bandlik darajasi, hom-ashyo samaradorligi, iqtisodiy foyda va ekologik barqarorlik mezonlari aniqlashtirildi.

Uchinchidan, sohaviy mutaxassislar, kichik biznes egalari va hunarmandlar o'rtasida so'rovnomalar va interv-yular o'tkazilib, ularning pillachilik faoliyatiga oid qarashlari, muammolari va takliflari o'rganildi.

To'rtinchidan, hisob-kitob va simulyatsiya modellari yordamida pillachilik biznesining kichik va o'rta xususiy subyektlar uchun daromadlilik darajasi va soliq bazasiga ta'siri aniqlab chiqildi. Bundan tashqari, davlat statistikasi, ilmiy maqolalar va normativ hujjatlar asosida tahliliy ma'lumotlar bazasi shakllantirildi.

Tadqiqot davomida 2020–2024-yillar oralig'idagi milliy va mahalliy darajadagi dasturlar, xususan "Yashil makon", "Mahallabay ishlash tizimi", "Oilaviy tadbirkorlik dasturi" va boshqa tashabbuslar natijalari kontekstida pillachilik biznesining roli baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tut daraxti soya-salqin muhit yaratish xususiyatiga ega bo'lib, suvsiz va suv ta'minoti cheklangan hududlarda ham muvaffaqiyatli o'sadi hamda bir nechta tarmoqlar uchun sanoatbop xom-ashyo manbai sifatida xizmat qiladi. Uning eng muhim ekologik xususiyatlaridan biri — yer osti zax suvlarini bug'latish orqali tuproq sho'rlanishining oldini olish imkoniyatidir. Ma'lumotlarga ko'ra, tut daraxti bug'lanish samaradorligi bo'yicha chinor daraxtidan (kuniga 1200 litr) keyingi o'rinda turib, bir kecha-kunduz davomida 800 litrgacha zax suvni bug'latish quvvatiga ega. Shu orqali u sho'rlanishga qarshi kurashda muhim biologik vosita sifatida ahamiyat



kasb etadi.

Tut daraxti bir qator sanoat va hunarmandchilik tarmoqlari uchun quyidagi xom-ashyolarni yetkazib beradi: tut bargi, mevasi, novdasi, qovzog'i, pilla, pilla g'umbagi, ipak qurti qumalog'i, tut ko'chat, ipak qurti va ekologik jihatdan muhim bo'lgan toza havo. Bundan tashqari, tut daraxti kuchli shamol va bo'ronlarga qarshi tabiiy to'siq sifatida ham foydalidir.

Tut bargidan hozirgi vaqtda uch asosiy yo'nalishda foydalanilmoqda. Birinchidan, tut bargidan tayyorlangan choy ichki bozor bilan birga o'ndan ortiq Yevropa mamlakatlariga eksport qilinmoqda. Buxoro viloyatining G'ijduvon choy qadoqlash fabrikasi bu borada muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotgan muassasalardan biridir. Ikkinchidan, tut bargi Yevropa mamlakatlariga – xususan, Vengriya, Germaniya, Belarus va Ukraina kabi davlatlarga – eksport qilinmoqda hamda dori-darmon va choy tayyorlashda keng qo'llanilmoqda. Uchinchidan, tut bargi ipak qurti boqishda asosiy ozuqa manbai sifatida ishlatiladi. Shu bilan birga, u o'zining shifobaxsh xususiyatlari bilan tanilib, shamollash kasalliklarini davolashda xalq tabobatida keng foydalaniladi. (1-jadval)

1-jadval: Yashil biznes rivojlanib borishining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati

Yashil biznes	
Iqtisodiy ahamiyati	Ijtimoiy ahamiyati
1. Ekinzor bo'lmagan hududlardan samarali foydalanish orqali sanoat uchun zarur bo'lgan xom-ashyolar yetishtiriladi. 2. Mazkur xom-ashyolardan xalqaro tajribada yuqori daromadlar olinmoqda. Masalan, Turkiyada pista moyi, Fransiya ipak ichki kiyimlar va kostyumlar ishlab chiqarilib, tijoratda katta foyda keltirmoqda. 3. Quyosh va shamol energiyasidan foydalanish natijasida qayta tiklanuvchi energiya manbalari orqali elektr energiyasi olinmoqda. 4. Bioenergiya ishlab chiqarish yo'lga qo'yilmoqda. 5. Organik agro-mahsulotlar iste'moli tobora kengayib, kimyoviy moddalarning yuqori miqdoriga ega sabzavot va poliz mahsulotlari o'rniga ekologik toza, qimmatbaho mahsulotlar yetishtirishga o'tilmoqda. Bu jarayon yashil sohada band bo'lgan mehnatkashlarning qadriyatini oshirmoqda. 6. Ko'mir, gaz, metall va oltin kabi cheklangan resurslarning tugash ehtimoli mavjud bo'lsa-da, yashil iqtisodiyot ko'plab aholining ehtiyojlarini uzoq muddat davomida ta'minlash imkoniyatini beradi. 7. Boshqa iqtisodiy ijobiy jihatlar: ishlab chiqarishning barqarorligi, soliq tushumlarining o'sishi, eksport salohiyatining kengayishi va investitsiyalar oqimini rag'batlantirishi..	1. Yashil infratuzilma orqali toza havo bilan ta'minlanish imkoniyati kengayadi. 2. Yangi ish o'rinlari barpo qilinadi va aholi bandligi oshadi. 3. Aholining turmush sifati yuksaladi. 4. Inson umrining davomiyligi ortadi. 5. Daromad miqdorining kishi boshiga o'sishi bilan ichki va tashqi turizm, madaniy almashinuvlar rivojlanadi. 6. Yangi avlod tarbiyasi sifat jihatidan takomillashadi. 7. Qat'iy 8 soatlik ish tartibidan farqli o'laroq, oilaviy biznes shakllari kengayadi. Bu holatda 4, 6 yoki 8 soatlik moslashuvchan ish rejimlari orqali mehnat unumdorligi va intellektual rivojlanish ta'minlanadi. 8. Ilgari foydalanilmay kelgan noekin yerlar aholiga yangi daromad manbai sifatida xizmat qila boshlaydi. 9. Davlat byudjetiga tushumlar ortgach, sog'liqni saqlash, ta'lim, fan, obodonlashtirish, madaniyat va ijtimoiy himoya sohalariga yo'naltiriladigan mablag'lar hajmi ham ortadi. Shu bilan birga, xalqaro va mintaqaviy do'stona hamkorlik aloqalari mustahkamlanadi.

Tut mevasidan sharbat, tut qoqisi va murabbo tayyorlanadi. Tut novdasidan esa mebelsozlik uchun zarur bo'lgan xom-ashyo olinadi. Ushbu novdalar parchalab, titilib, sifatli DVP (drevesno-voloknistaya plitka) tayyorlanadi. Bunday mahsulot asosida puxta, uzoq muddat foydalaniladigan yuqori sifatli mebellar ishlab chiqarish imkoniyati mavjud. Bu esa yog'och importining kamayishiga va tayyor mebel mahsulotlarining eksport hajmini oshirishga xizmat qiladi. Hozirgi kunda tut novdalari, asosan, o'tin sifatida foydalanilmoqda. Biroq, kelajakda tut novdasini mebel ishlab chiqarish sanoatiga yo'naltirish bo'yicha biznes loyihalarni yo'lga qo'yish dolzarb vazifalardan biridir.

Mutaxassislar fikricha, tut novdasini DVP mahsuloti uchun tayyorlashda "drobilka" uskunasi yetarli emas. Shu sababli, uni titib, payraxaga aylantiruvchi maxsus dastgohlar ustida ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish zarur. Bu boradagi texnologik izlanishlar ichki iqtisodiy imkoniyatlarni samarali ishga solishga xizmat qiladi.

Tut qovzog'i ikki bosqichda bir vaqtning o'zida foydalaniladi. Avvaliga, tut qovzog'i qaynatilib, adras matosi uchun tabiiy bo'yoq olinadi. Shundan so'ng, qaynagan qovzoq ipak qog'oz tayyorlash maqsadida ikkinchi bosqich ishlovdan o'tkaziladi.

Pillalar orasida tut pillasi eng sermahsul xom-ashyo hisoblanadi. Boshqa (masalan, dub daraxti) pillalarining sanoatdagi qo'llanilishi cheklangan, chunki ularning ipi tez uziladi va yaroqlilik muddati qisqadir. Tut pillasidan ipak va pilla g'umbagi ajratib olinadi. Ilgari bu jarayon oddiy qozonda qaynatilib, ipini charxga o'rab olish orqali amalga oshirilgan. Ipakdan esa shoyi matolar – Marg'ilonning sakkiztepki atlas, adras hamda

tibbiyot va texnikaga oid mahsulotlar tayyorlanadi. Masalan, harbiy-sport parashyutlari, aeroportlarda reaktiv samolyotlarni tormozlaydigan parashyutlar, jarrohlik iplarida tut ipaklaridan foydalaniladi. Ayniqsa, tibbiyotda tut ipagining organizmga mosligi sababli jarrohlik ipi sifatida qo'llanishi amaliy afzallikka ega – uni sug'urib olish shart emas.

Pilla g'umbagidan ikki yo'nalishda foydalaniladi:

issiq xonalarda saqlanib, undan kapalak yetishtiriladi va undan ipak olish sikli davom ettiriladi;

kosmetika sanoatida foydalaniladi – g'umbak inson terisini yoshartirib, silliqlashtirish xususiyatiga ega. Shu bois, “yashil kimyo” sohasida olimlar pilla g'umbagining kosmetik xususiyatlari bo'yicha tadqiqotlar olib borishlari lozim. Chunki kosmetik xom-ashyo sifatida pilla g'umbagi pilla og'irligining uchdan ikki qismini tashkil etadi. Ayni paytda esa bu mahsulot asosan parrandalarga yem sifatida ishlatilmoqda.

Qurt qumalog'i ham yuqori qiymatli xom-ashyo bo'lib, oshqozon-ichak kasalliklarini davolashda foydalidir. Yaponiya tajribasini o'rganib, ushbu noyob xom-ashyoni eksportga yo'naltirish bo'yicha izlanishlar olib borish muhim vazifalardan biridir. Hozirgi kunda u chorva uchun yem va yerga organik o'g'it sifatida, tizimli bo'lmagan holatda foydalanilmoqda.

Tut ko'chatlari, asosan, tut mevasi urug'i orqali ko'paytiriladi. Ko'chatlar ulama-payvand yo'li bilan manzarali (majnuntut), marvarid tut, shotut va pillachilikda qo'llaniladigan serbarg navlarga ajratilib yetishtiriladi. Mahalliy tut navlarini saqlab qolish alohida ahamiyatga ega, chunki ulardan olinadigan meva urug'i orqali istalgan navdagi tut ko'chatlarini yetishtirish mumkin. Farg'ona viloyatining Quva va Farg'ona tumanlari mirishkorlari ushbu yo'nalishda faoliyat olib borishadi. Ular yetishtirayotgan tut ko'chatlari xorijdan import qilinadigan ko'chatlarga nisbatan bir necha barobar arzon va mahalliy sharoitga moslashgan hisoblanadi.

Ipak qurti urug'ligi maxsus “grenzavod”larda yetishtiriladi. Kelajakda esa ipak qurti urug'chilik korxonalari sonini xususiy kichik biznes subyektlari hisobiga ko'paytirish zarur bo'ladi. Bu boradagi yondashuvning afzalligi shundaki, davlat moliyaviy mablag'lari sarflanmagan holda, aholi vakillari va kichik biznes subyektlari tomonidan, davlatning uzoq muddatli strategik rejalariga xalaqit yetkazmasdan, yangi biznes yo'nalishlari shakllantiriladi.

Iqtisodiy-ekologik hududlarda tashkil etilgan xususiy tutqatorlar davlat budjetiga yuk bo'lmasdan, tabiatga zarar yetkazmagan holda, ishsizlik va kambag'allik muammolarini bartaraf etish imkonini beradi.

Rekreatsiya hududlarida manzarali daraxtlar orasida tut daraxtlarini ekish amaliyoti ilk bor 2018-yil – erta bahor faslida, Marg'ilon shahri Mustaqillik ko'chasida boshlangani ma'lum. Ushbu tashabbus ustozlardan biri tomonidan ilgari surilib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qo'llab-quvvatlangan. Natijada, 2022-yilga kelib, ushbu model Toshkent shahrida keng ko'lamda davom ettirildi. 2022-yil mobaynida poytaxt rekreatsiya hududlariga bir milliondan ortiq tut ko'chatlari ekildi. Shu yilning o'zida respublikaning boshqa hududlarida esa 70 million tup tut va povloniya ko'chatlari yerga qadab qo'yildi.

Yashil kichik biznesning afzalliklaridan yana biri shundaki, tutqatorlar rekreatsiya hududlari hamda noekin yerlarda barpo etiladi, bu esa mavjud ekin maydonlariga ta'sir qilmaydi. U ko'p sonli ishchi o'rinlari yaratadi, ekologik tozadir, uning xomashyolari uzoq muddat saqlanadi va tezda yaroqsiz holga kelmaydi.

Agar tahliliy jihatdan qiyos qilinadigan bo'lsa, ko'p tarmoqli rekreatsion tutchilik qishloq xo'jaligining boshqa tarmoqlari orasida yetakchi o'rin egallaydi. Ikkinchi o'rinda paxtachilik va boshqa ekinlar turlari turadi. Paxtachilik oziq-ovqat xavfsizligi, o'simlik moyi, go'sht (kunjara), sut (chigit po'stlog'i) kabi mahsulotlarni ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Paxta tolasi esa yuqori sifatga ega bo'lgan noyob xomashyo sanaladi.

Iqtisodiy-ekologik hududlarda tut daraxtlari yo'l chetlari, bog'lar, xiyobonlar, ko'p qavatli uylar atrofi, korxona va tashkilot hovlilarida joylashtiriladi. Bu esa aholi uchun geografik jihatdan qulaylik yaratadi. Tut bargini transportda tashishga hojat qolmaydi, aholi asosiy ish faoliyatidan chalg'imagan holda ushbu resursdan foydalanishi mumkin. Tut daraxti bir marta ekilib, yaxshi ko'karib olgach, deyarli e'tibor talab qilmaydi va har yili takror-takror bepul xomashyo – barg beradi. Masalan, 6 yoshli bir tup tut daraxti o'rtacha 5,5–6,5 kg., ba'zi hollarda esa 10 kg.gacha barg yetishtira oladi.

Yangi ekilgan ikki yoshli ko'chat esa birinchi yilidayoq 500 grammgacha barg berishga qodir. Yaxshi parvarishlangan ko'chatdan iyul oyidan boshlab, 3–4 marotaba barg qo'l bilan yig'ib olinishi mumkin. Novdalar o'sish nuqtasiga zarar yetkazilmasa, hosildorlik yuqori bo'ladi. Bir quti (19 gramm) ipak qurti boqilishi uchun 900–1000 kg. tut bargi, ya'ni 200 tup katta yoshli tut daraxti bargi zarur bo'ladi. Demak, birinchi yili barglari qo'lda terilayotgan 2000–2100 tup tut daraxti yordamida bir quti ipak qurti bir marotaba boqilishi mumkin. Bu natija pista ko'chatlarining 7–9 yilgacha hosil bermasligini inobatga olgan holda juda qulay hisoblanadi. Natijada, xususiy tadbirkor allaqachon birinchi yildan boshlab, oz miqdorda bo'lsa-da, pilla yetishtirishi, undan ipak ajratib olishi va daromad olishni boshlashi mumkin.

Rekreatsion ko'p tarmoqli tutchilikning yana bir ahamiyatli jihati shundaki, ko'p qavatli uylarda yashovchi talabgorlar ham o'z tutqatorlarini shakllantirish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Iqtisodiy-ekologik hududlar tarkibidagi tut daraxti egalarning tutdan foydalanish, uni ijaraga berish yoki sotish huquqlari mavjud.

Tut ko'chatlari ekilishi mumkin bo'lgan yerlarni mahalla fuqarolar yig'ini mas'ul xodimlari aniqlab, aniq hududlar bo'yicha belgilab bersalar, ishlar tizimli va uzviy olib boriladi. Shuningdek, xususiy tutqatorlarning



shahar va qishloq hududlaridagi mahallalarda tashkil etilishining qulay jihatlaridan biri shundaki, tutdan olinadigan xomashyoni shu hududning o'zida, aholi ishtirokida chuqur qayta ishlash imkoniyati yuqori bo'ladi.

Mahallalarda va ko'p qavatli uylar atrofida yashovchi ishsiz ayollar kasanachilik asosida, o'z xonadonlarida ipak gilam, atlas, adras kabi matolarni to'qish, boshqalari esa tayyor kiyimlarni tikish, yana boshqalar esa ichki va tashqi bozorlarda realizatsiya qilish bilan shug'ullanishi mumkin. To'quvchi, tikuvchi va boshqa xomashyo ishlovchilarni qisqa muddatli amaliy kurslar orqali tayyorlash mumkin bo'ladi.

Mulk xususiy bo'lganligi sababli, chuqur ixtisoslashuv imkoniyati kengayadi. Masalan, 200–600 tup tut daraxtiga ega bo'lgan xususiy tadbirkor yoki oilaviy biznes egasi har yili yetti martagacha ipak qurti boqish va pilla yetishtirishga ixtisoslashishi mumkin. Shu bilan birga, pilla yetishtirishdan tashqari, tut novdalari, qovzoq va boshqa xomashyolarni ham chuqur qayta ishlash zarur bo'ladi. Bu esa boshqa xususiy biznes vakillariga o'z kichik tseklarini ochib, ishlab chiqarishning boshqa bo'g'inlariga ixtisoslashish imkonini beradi.

Tarmoqning barqaror faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan tashqi xizmatlar qatoriga quyidagilar kiradi: ipak qurti urug'ini yetkazib berish, tut daraxtlari kasalliklariga qarshi kurashish, elektr ta'minoti, sug'urta, bank xizmatlari va boshqalar. Shu bilan birga, ayniqsa muhim xizmatlardan biri — axborot va reklama faoliyatini yurituvchi jurnalistika xizmatlaridir. Ko'pincha biz ushbu sohani — natijani belgilovchi eng muhim xizmat turini — e'tibordan chetda qoldiramiz. Aslida esa samarali axborot siyosati orqali "yashil tutchilik" modeli nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy jihatdan ham keng ommalashadi. (2-jadval)

2-jadval: Iqtisodiy-ekologik hududlar doirasida yashil iqtisodiyot, yashil biznes va kichik biznesning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati

Yashil iqtisodiyot	Yashil biznes	Kichik biznes
Ko'mir, gaz va sanoat korxonalaridan atmosferaga tarqaladigan tutun va zaharli gazlarni kamaytirish maqsadida, tabiiy va qayta tiklanuvchi resurslardan foydalanish orqali aholining, sanoat va xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlarining talablarini barqaror qondirishga qaratilgan xo'jalik yuritish modeli hisoblanadi. Suv kuchi, quyosh nuri va shamol energiyasidan foydalanish orqali elektr energiyasi ishlab chiqarish bo'yicha yirik komplekslar bilan bir qatorda kichik elektr generatorlari va quyosh panellari yordamida iqtisodiyot tarmoqlarining ehtiyojlarini ta'minlash yo'llari ishlab chiqilmoqda. Shuningdek, iqtisodiy-ekologik hududlar tarkibidagi foydalanilmayotgan yer maydonlaridan oqilona foydalanish orqali sanoat uchun zarur bo'lgan xom-ashyo, qurilish materiallari va boshqa sohalar uchun resurslar yetkazib berilishi mumkin. Bu holat atrof-muhitga zarar yetkazmasdan xo'jalik yuritish, barqaror daromad olish, ishlab chiqarish ko'lamini kengaytirish, xizmat ko'rsatish tarmoqlarini rivojlantirish va aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, tabiiy boyliklarning mavjud zaxiralari cheklangandir: ko'mir – 70 yilga, tabiiy gaz – 50 yilga, neft esa – 30 yilgacha yetishi mumkin. Shuning uchun qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va yangi imkoniyatlarni izlash dolzarb vazifa hisoblanadi.	Iqtisodiy-ekologik hududlarda mavjud tabiiy resurslardan foydalanish orqali iqtisodiy naf keltiruvchi faoliyatlarni tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, quyosh energiyasi, shamol va suv kuchidan foydalanib, aholiga hamda sanoat tarmoqlariga elektr energiyasi, issiqlik va issiq suv yetkazib berish orqali barqaror daromad olish mumkin. Bundan tashqari, yer va suv resurslaridan samarali foydalanib, ekologik toza mahsulot yetishtirish hamda foydalanuvga kiritilmagan yerlarda yashil bizneslar tashkil etish katta iqtisodiy samaradorlikka ega. Bunday noekin yerlar qatoriga tog'lar, qir-adirlar, dasht va sahrolar, magistral yo'llar qirg'oqlari, shahar va qishloq hududlaridagi yo'llar, ariqlar bo'yilari, ko'p qavatli uylar atrofidagi bo'sh joylar, bog'-hiyobonlar hamda muassasa va tashkilotlar hovlilari kiradi. Ushbu joylarda manzarali va mevali daraxtlar bilan birga tut daraxtlarini ekish orqali ekologik talablarga to'liq javob beradigan yashil biznesni yo'lga qo'yish mumkin. Natijada hunarmandchilik va sanoat uchun zarur bo'lgan xom-ashyolar yetishtiriladi, eksport salohiyati oshadi, import hajmi kamayadi va talaba-yoshlar ham faol ishtirok etib daromad oladilar.	Iqtisodiy-ekologik hududlarda tashkil etilgan kichik bizneslar eng samarali faoliyat turi hisoblanadi. Bu holat xususiy mulkchilik asosida kichik, ammo samarali imkoniyatlarni harakatga keltirish imkoniyatini beradi. Kichik biznes katta moliyaviy sarmoya talab qilmaydi. Unda yetishtirilgan xom-ashyolar uzoq muddat saqlanadi, sanoat korxonalariga yetkazib berishda muammolar yuzaga kelmaydi. Aloqa, transport, ishchi kuchi, mutaxassis, matoga bo'lgan ehtiyoj kabi qo'shimcha resurslar va texnik murakkabliklar minimal darajada bo'ladi. Bu esa kichik biznesni iqtisodiy-ekologik hududlar uchun eng maqbul yechimga aylantiradi.

Bu iqtisodchi, menejer, marketolog va, albatta, buxgalterlarning faoliyati bilan bevosita bog'liq sohadir. Iqtisodchi – uy xo'jaligi yuritish san'ati mutaxassisi sifatida, o'z tajribasi bilan doimiy muloqotda bo'lish muhim hisoblanadi. Menejer – ishlab chiqarish ko'lamini kengaytgan sharoitda tashkilotni samarali boshqaruvchi sifatida muhim rol o'ynaydi. Marketolog – bozor qonuniyatlari va tartib-qoidalari bo'yicha mutaxassis bo'lib, bajarilgan mehnat samarasiz ketmasligi uchun faoliyat yuritadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mahsulot ishlab chiqarish, yetishtirish va ijro etish jarayonlarini har qanday iqtidorli inson yo'lga qo'ya oladi. Biroq, tovarni (mahsulot, ish, xizmat) realizatsiya qilish har kimning ham qo'lidan kelavermaydi. Aslida, realizatsiya – ishlab chiqarish zanjirining eng muhim bo'g'inidir. Xaridorlar mahsulotga oldindan buyurtma beradigan tizim yaratilsa, tadbirkorlik tez rivojlanadi.

Yana bir muhim xizmat turi borki, tadbirkorlar, xo'jalik yurituvchilar – umuman, barcha faol subyektlar unga muhtoj. Bu – buxgalteriya hisobi bo'lib, unga e'tibor bermaslik ishsizlik, kambag'allik va hatto bankrotlikka olib kelishi mumkin. Buxgalteriya hisobi va hisobotlari boshqa barcha fan va amaliyotlardan ustun hisoblanadi. Sababi, u barcha iqtisodiy subyektlar uchun zaruratsidir. Insonlar va xo'jalik yurituvchilar bilan davlat o'rtasidagi munosabatlar aynan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar orqali tartibga solinadi.

Soliqlarni qonun talablariga muvofiq, aniq va xatosiz hisoblab chiqish, ularni o'z vaqtida to'lab borish – buxgalteriya hisobi yordamida amalga oshiriladi. Chunki buxgalteriya hisobi faqat tasdiqlangan hujjatlar asosida, huquqiy mezonlarga tayangan holda yuritiladi. Uni reja, musobaqa, obro' yoki majburiyat kabi subyektiv omillar qiziqitirmaydi.

Ayniqsa, 2022-yildan boshlab xalqaro buxgalteriya hisoboti va standartlariga o'tilgani bu xizmat ahamiyatini yanada oshirdi. Sababi, endilikda buxgalteriya hisobotlari valyuta kursi o'zgarishlari va bozor narxlariga asoslanadi. Masalan, eskirish hisobidan balansda qiymati "0" so'm bo'lib qolgan bino, uskuna yoki avtomobilning bozor bahosi bir necha million so'mga teng bo'lishi mumkin. Aksincha, qimmatbaho deb baholangan aktivlarning real bozordagi qiymati past bo'lishi ehtimoldan holi emas.

Buxgalteriya hisobining samarali tashkil etilishi iqtisodiy-ekologik hududlardagi tut plantatsiyalarini raqamlashtirish, ya'ni ularni nomerlab, asosiy vositalar sifatida ro'yxatga olish imkonini beradi. Axborot texnologiyalaridan foydalangan holda buxgalteriya hisobini kompyuterda yuritish uning mavqeini pasaytirmaydi, balki yanada oshiradi. Natijada davlat byudjetiga to'lovlar, debitorlik va kreditorlik bilan bog'liq hisob-kitoblar yanada operativlashadi.

Shuningdek, mehnat yoshidagi har bir fuqaroning mehnat faoliyati bo'yicha elektron mehnat daftarlari yuritiladi. Pensiya jamg'armasiga ijtimoiy soliq o'z vaqtida va to'liq o'tkazilishini ta'minlash – doimiy nazorat ostida bo'ladi. Bunday tizim orqali norasmiy mehnat bozorlarining, ya'ni "mardikor bozorlari"ning mavjudligi ham bartaraf etiladi. Ish beruvchilar kerakli ishni bajarish uchun buyurtma beradi, normalovchi mutaxassis esa borib ish hajmini va to'lov miqdorini aniqlaydi hamda talabgorga schyot (to'lov hujjati)ni taqdim etadi. Ish sharoiti, tushlik, borish-kelish xarajatlari bo'yicha ham aniq hisob-kitob yuritiladi.

Shu natijaga erishish uchun iqtisodiy-ekologik hududlar doirasida ko'p tarmoqli tutchilik biznesini imkon qadar tezroq tashkil etish zarur. Bu orqali ortiqcha ishchi kuchi kabi tushunchalarni kun tartibidan chiqarib, inson sha'nini ulug'lashda mahalla ahlining faolligiga erishish mumkin. "Arzon ishchi kuchi" yoki "xorijsa ishlovchi" kabi atamalar ham asta-sekinlik bilan ijtimoiy muomaladan chiqishi lozim.

Shubhasiz, bu borada davlat idoralari zimmasida ham muhim vazifalar mavjud. Biroq, eng avvalo, mahalla boshqaruvi darajasida ekologik toza, serdaromad va hech kimga zarar yetkazmaydigan naf keltiruvchi faoliyatlarni boshlashga intilish kerak. Bunday tashabbuslarni targ'ib qilishda ommaviy axborot vositalari, matbuot, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar orqali yer, suv yoki ruxsatnoma talab qilmaydigan xususiy bizneslar haqida keng ko'lamli bilimlar berilishi lozim.

Xususiy bizneslar quyidagi shakllarda bo'lishi mumkin: yakka tartibdagi tadbirkorlik, kichik xususiy korxonalar, yirik xususiy korxonalar. Ular qatorida oilaviy xususiy bizneslar ham muhim o'rin tutadi. Oilaviy biznesning afzalligi shundaki, unda ishlab topilgan daromad o'rtada taqsimlanmaydi, ya'ni oilaning o'zida qoladi.

Oilaviy xususiy biznes uchun eng maqbul model bu – iqtisodiy-ekologik hududlar ichida yo'lga qo'yiladigan xususiy tutchilik faoliyatidir. Bunday yondashuv barqaror daromad manbai, ekologik barqarorlik va ijtimoiy bandlikni ta'minlovchi omil sifatida muhim ahamiyatga ega.



3-jadval: Iqtisodiy-ekologik hududlarda tashkil etiladigan daraxtlarning texnik-iqtisodiy xususiyatlari tasnifi

Mahsulotlar turlari	Mehnat sarfi yetishtirishdagi	Suv, o'g'it sarfi	Zaxarai kimyoviy vositalar sarfi	Texnikada ishlov berish	Terib, to'plab olish (mavsumda)	Egallagan ekin yerlari hajmi	Olinadigan hom-ashyolarning turlari va foydalanish yo'nalishlari	Foydalanish va mulkchilik turlari
Tog' pistasi va bodom	-	-	-	-	Qo'l mehnati yoki yo'llanma mehnat	Tog', qir, adir, dasht, sahro, noekin yer	Pista, pista moyi, pista bargi, pista po'chog'i, farmatseptika, mebelsozlik. Oziq-ovqat	Kichik yoki oilaviy biznes. O'zi foydalanadi, ijaraga beradi, soatadi. Xususiy mulk
Yong'oq	-	Tomchilatib sug'orish	-	-	Qo'l mehnati yoki yo'llanma mehnat	Tog', qir, adir, dasht, sahro, noekin yer, noekin yerlar	Yong'oq, yong'oq mag'zi, moy	Kichik yoki oilaviy biznes. O'zi foydalanadi, ijaraga beradi, soatadi. Xususiy mulk
O'rik	-	-	-	-	Qo'l mehnati yoki yo'llanma mehnat	Tog', qir, adir, dasht, sahro, noekin yer, noekin yerlar	O'rik, o'rik qoqi, danak, mag'iz	Kichik yoki oilaviy biznes. O'zi foydalanadi, ijaraga beradi, soatadi. Xususiy mulk
Tut	-	-	-	-	Qo'l mehnati yoki yo'llanma mehnat	Noekin yerlar va rekreatsiya hududlari	Barg, meva, novda, qovzoq, pilla, pilla g'umbagi, qurt qumalog'i	Kichik yoki oilaviy biznes. O'zi foydalanadi, ijaraga beradi, soatadi. Xususiy mulk
Marvarid tut, shotut	-	-	-	-	Qo'l mehnati yoki yo'llanma mehnat	Rekreatsiya hududlari	Tut mevasi, tut mayiz, murabbo	Mahalla, oila, kichik korxonalar mulki

Rekreatsiya hududlari va noekin yerlardagi iqtisodiy-ekologik hududlarda tashkil topadigan xususiy bizneslar asosan oilaviy bo'lib, ko'p tarmoqli tutchilik sharoitida ixtisoslashuv va klasterlashuv jarayonlari yuzaga keladi. Manzarali daraxtlar orasida o'sayotgan tutlar kattalashib borgan sari, sanoat asosida qayta ishlanadigan hom-ashyolar turi ham ortib boradi. Tutdan olinadigan hom-ashyolarni faqat hunarmandchilik usullarida qayta ishlashga ulgurib bo'lmaydi, shuning uchun sanoat asosida chuqur qayta ishlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib borish lozim.

Natijada sanoat korxonalarida ko'plab ish o'rinlari yaratiladi, korxonalar ko'p smenali faoliyatni yo'lga qo'yish imkoniyatiga ega bo'ladi. Agar Toshkent shahri hududiga kamida 1 million tup tut ko'chatlari ekilib o'stirilsa, u holda sanoatlashtirilgan turli sohalarda yangi qiymatlar yaratiladi. Bu yangi qiymatlar Respublika bo'yicha katta miqdordagi iqtisodiy foydani, xususan davlat byudjetiga ko'p miqdorda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar tushishini ta'minlaydi.

Umuman olganda, iqtisodiy-ekologik hududlardagi xususiy bizneslarning mohiyati shundaki: ular ekin yerlarini va suv resurslarini band qilmaydi, atrof-muhitga zarar yetkazmaydi, lekin ko'plab ish o'rinlari va barqaror daromad manbalarini yaratadi. Bu esa ushbu sohani iqtisodiy barqarorlik va ekologik muvozanatni ta'minlashdagi muhim vositalardan biriga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida". <https://lex.uz/docs/-5841063>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 18-dekabrda PQ-397-sonli Qarori "Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi huzurida sanoatni rivojlantirish jamg'armasi tashkil etish to'g'risida". <https://lex.uz/uz/docs/-6696009?ON-DATE=03.05.2024%2000>
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 10-fevraldagi 77-sonli Qarori "Pilla yetishtirish va qayta ishlashni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida". <https://lex.uz/uz/docs/-5293707>
4. Qodirov, B. (2021). Pillachilik asoslari. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
5. G'ulomov, S., & Raxmonqulov, R. (2019). Yashil iqtisodiyot: Nazariya va amaliyot. Toshkent: Fan.
6. Saidov, A. X. (2018). O'zbekiston Respublikasining ekologik huquqi. Toshkent: Adolat.
7. Bobojonov, I., & Tursunov, B. (2020). "Rekreatsion hududlarda agrobiznesni rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari". Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, №6.
8. FAO (2020). Sericulture: A manual for small-scale silk producers. Rome: Food and Agriculture Organization of the United Nations.
9. World Bank. (2021). Green Growth in Uzbekistan: Policy Options for Transitioning to a Green Economy. Washington, DC: The World Bank Group.
10. OECD (2022). Green Jobs and Sustainable Development. Paris: Organisation for Economic Co-operation and Development.
11. Azimov, M. (2023). "Pillachilik va ipak sanoatida innovatsion rivojlanish tendensiyalari". Iqtisodiy tadqiqotlar jurnali, №2.
12. Karimov, H. (2019). "Kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning institutsional asoslari". Ilmiy-amaliy iqtisodiy sharh, №3.
13. Norqulova, S. (2021). "Yashil iqtisodiyot doirasida qishloq xo'jaligi resurslaridan samarali foydalanish". Ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanish, №5.
14. Tursunova, G. (2022). Biznes rejalashtirish asoslari. Samarqand: SamDU nashriyoti.
15. United Nations Development Programme (UNDP). (2020). Silk Value Chains in Central Asia: Opportunities for Inclusive Development. New York: UNDP.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100